

ESKI O'ZBEK ADABIY TILIDA ARABIY VA FORSIY OMONIM O'ZLASHMALAR

UrDU o‘qituvchisi

X.Bobojonova

Eski o‘zbek adabiy tilida fors va arab tilidan o‘zlashgan leksik omonimlar o‘zbek tilidagi leksik omonimiya orasida katta o‘rin tutadi. Badiiy asarning poetik talabiga ko‘ra ijodkor arab va fors tilidagi omonimlarga ko‘p murojaat qilishi, o‘z asarida ularning semantik va, albatta, poetik imkoniyatlardan foydalanishiga to‘g‘ri kelgan. Bu ayniqsa, tajnis va uning turlarini yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etgani barchamizga ayon. Quyida eski o‘zbek adabiy tilidagi ana shunday bir necha omonim o‘zlashmalarining adabiy asardagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

Girih omonim o‘zlashmasi. Yuqoridagi tasnifning ikkinchi turiga mansub bo‘lgan lug‘aviy shakldosh so‘zlar bo‘lib, talaffuzi va imlosi bir xil, leksik va grammatik ma’nolari turlicha bo‘lgan forsiy o‘zlashmadir. Ushbu omonimik juftlikning ikki ma’nosi mavjud:

- 1) گۇھ – tugun, muammo, bog‘lam, bog‘langan joy. Alisher Navoiy asarlarida ushbu so‘z bir necha ma’nolarda qo‘llangan:

a) tugun, chigil:

Demasmenkim, kesib o'qı zirihni.

Taxavvul toridi ochib girihni^l.

b) egrilik, qing'irlilik:

Agarchi voya girih bo'lsaq, o 'qi tuz chiamas.

¹ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Том VIII. – Тошкент. Фан. 1991. –Б. 60.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Qoshi giri bila zulm o ‘qin etmadi taqsir².

c) mushkullik, qiyinchilik:

Ko ‘pgiri h tushti Navoiy ishiga,

Sen kushode ber anga, yo Fattoh³.

d) o‘rim, soch o‘rimi:

Giri h-giri h chu tugarsen etar oyog ‘ingg ‘a soch,

Giri hlarin chu ocharsen tushar quloch-quloch⁴.

Bundan tashqari ushbu so‘z Navoiy asarlarida *giri h urmoq – bog‘lamoq, tugmoq, giri h solmoq – qoshni chimirmoq* kabi qo‘shma fe’llar, *giri hgir – tugunli, jingalak* kabi sodda yasama sifatlarning yasalishida ishtirok etgan⁵.

Ko‘rinib turganidek, Navoiy asarlarida uchraydigan *giri h* bir so‘zning turli ma’nolari. Eski o‘zbek adabiy tilida biz ushbu so‘zni nafaqat yuqoridagi ma’nolarda, balki ayni asosdan paydo bo‘lgan *murakkab naqsh* ma’nosida qo‘llanganini ham kuzatamiz. Asli ushbu so‘zning asosi ham aynan *tugun* ma’nosidagi *giri h*dir. Chunki dastlab burama, murakkab tugunlarga ega naqshlar *giri h* yoki *gireh* deyilgan. Keyinchalik bu bog‘liqlik yo‘qolgan.

Chunonchi, quyidagi misollarga e’tibor beraylik:

Ta ’bi daqoyiqda giri hlar ochib,

Nutqi haqoyiqda guharlar sochib (JVS, 12).

Ushbu satrlarda ijodkor *giri h* so‘zini *tugun, chigallik* ma’nosida qo‘llamoqda va so‘zni tavzi’, tazod, tarse’ kabi san’atlarni yuzaga keltirishga xizmat qildirmoqda.

Vale suvda mavji girehgirlar,

Solib sarv oyoqig ‘a zanjirlar (FI, 105).

²Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Том III.– Тошкент. Фан. 1988. –Б. 132.

³Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Том V. – Тошкент. Фан. 1990. –Б. 80.

⁴Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Том IV. – Тошкент. Фан. 1989. –Б. 73.

⁵Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. I жилд. – Тошкент. Фан. 1983. – Б. 405.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Ushbu misralarda shoir so‘zning *naqsh*, *naqshinkor* ma’nosidan istifoda etib, tashbeh, tashxis, tavzi’, tanosub kabi san’atlarni yuzaga keltirmoqda.

Eski o‘zbek adabiy tili davriga oid she’riy parchalarning o‘zidayoq ushbu so‘zni bir necha ma’nolarda kelgani o‘quvchini hayratga soladi. Chunonchi:

Otib o‘qchilar qoshg‘a solmay gireh,

Chiqib go‘shayi yodin ovozi zeh (FI, 442).

Ushbu o‘rinda shoir o‘zlashmani *egrilik* ma’nosida qo‘llab, tanosub, tashxis, tashbeh san’atlarini baytda yuzaga keltirmoqda.

Shanba kuni choshtgohdin so‘ng falaki nilchehr sard mehrlik og‘oz qilib, havo mavji burudat shiddatidin guhar suyidek girihband bo‘ldi (FI, 613) satrlarida ijodkor nasrda nazm go‘zalligini namoyish etmoqdaki, bunda *girihband* dumaloq, tugunchak ma’nolarida qo‘llanib, tashbehning go‘zal namunasini yuzaga keltirmoqda.

Burj omonim o‘zlashmasi. *Chun hazrati zillullohiy xurshidi duraxshon bila mohi tobon bir burjdin jilvagar bo‘lg‘ondek va yo la‘li rangin bila guhari samin bir durjni maqar qilg‘ondek* (ZT, 394^a). Ushbu misolda qo‘llangan *burj* so‘zi astronomik atama sifatida qo‘llangan. *El-u urug‘imiz bila qal‘adin chiqib, mahkam xandaq qozib, burj-u borular bino qilib, ahl-u ayolimiz bila kirib o‘lturg‘umuzdur* (JVS, 91). Keltirilgan bu misolda esa *burj* me’morchilikka oid atama sifatida qo‘llanmoqda. SHuningdek, eski o‘zbek adabiy tili davriga oid adabiy manbalarda *Chilburj* toponimi uchraydiki, undagi komponent sifatida qo‘llanayotgan *burj* ham me’morchilikka oidligi sezilib turibdi. Avvalgi misolda burj tanosub, tashbeh kabi san’atlarga hamda musajja’ usuliga xizmat qildirilmoqda. Ikkinchi misolda tanosub, ta’did, tavzi’ san’atlari yuzaga chiqishiga xizmat qilmoqda. Har ikki *burj* so‘zi ham arab tili orqali o‘zlashgan o‘zlashma bo‘lib, muarrablardan biri hisoblanadi. So‘zning dastlabki ma’nosi shaharsozlik (me’morchilik)da keng qo‘llanadigan qal’a devoriga tutashtirib, unga

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

tirgak sifatida tashqi tomonidan minora shaklida qurilgan qo'shimcha binoni anglatadi⁶. Ikkinchi quyoshning yillik ko'rinchma harakati doirasidagi o'n ikkita yulduzlar turkumi yoki ularning har biri ma'nosini aslida dastlabki ma'nodan o'sib chiqqan va keyinchalik oradagi bog'liqlik yo'qolgan. Bu haqda Sijistoniy alohida ham to'xtalib o'tgan. Uning ta'kidicha, Qur'oni Karimda to'rt o'rinda qo'llangan *buruj* burjning siniq ko'pligi bo'lib, janubiy arab shevalariga suryoniydan o'zlashgan⁷. A.Jeffery ushbu so'zning genezisini Oromiy shevalari bilan bog'laydi⁸. SHaharsozlikda qo'llanuvchi *burj* atamasi tarqalish areali keng bo'lib, yunon tilida πύργος (*pyrgos*⁹) – *tog'*, *qal'a*, lotin tilida *burgus* tarzida qo'llangan va *qal'a* yoki *qal'a*, *shahar devori* ma'nosini anglatgan. Suryoniya o'zlashgandagina u astronomik ma'no kasb qilgan. Bu biz bilgan *Hamburg*, *Wolfsburg*, *Nürnberg*, *Frankfurt*, *Peterburg* kabi shahar nomlaridagi *burg*, *berg*, *furt* kabi, Xorazm toponimlaridagi *fil*, *bil*, *fir*, *pir*, *bur*¹⁰ (*Alfir*, *Ardabil*, *Pir kabi*) komponentlar bilan bog'liq tarzda paydo bo'lgani shubhasiz. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu omonim polisemiya asosida hosil bo'lgan.

Shayx omonim o'zlashmasi. Eski o'zbek adabiy tili davri adabiy manbalarida keng qo'llanuvchi ushbu omonim o'zlashma ham polisemiya o'rtasida ma'no uzilishi natijasida paydo bo'lgan. Misol tariqasida quyidagi ikki jumlanı tahlil qilishimiz mumkin: *Marv sarhadidin to Oxalg'acha qaysi erda arbobi mol bo'lsa va shayxu shobdin mol naqdida sohibi nisob topilsa...* (RD, 263^b). Ushbu o'rinda qo'llangan *shayx* o'zlashmasi diniy-siyosiy atama sifatida diniy-huquqiy fatvo chiqaruvchi amaldor ma'nosini anglatsa, *Zubdatu-l-avliyo shayx Najmuddin Kubro quddisa sirruhu-l-*

⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. –Т.: Ўзбекистон миљий энциклопедияси. 2006. –Б. 378.

⁷As-Sijistānī. Nuzhat al-Qulūb fi Gharīb al-Qur'ān. Cairo, 1924. –Р. 63.

⁸Jeffery A. The foreign vocabulary of the Qur'an. Leiden-Boston. 2007. –Р. 78-79.

⁹شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برہان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶ . در جلد اول ص.

¹⁰Дўсимов З. Хоразм топонимияси ва «Авесто» . // «Авесто» – буюк қомусий асар. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 13-16., Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б., Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. –88 б., Дўсимов З., Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва «Авесто» . – Тошкент: Фан, 2010. –112 б., Юлдашев Д. Жанубий Коражолпоқистон топонимларининг тарихий-этимологик таснифи. Филол. фан. ном. дис. –Нукус. 2011. –Б. 82.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

azizning muborak maqbarasi javorig'a tushub lashkargoh qildilar (GD, 187^b) satrlaridagi omonim o'zlashma esa tasavvuf tariqati shayxi ma'nosini ifodalaydi. Aslida omonim birliklarning ikkinchisi avvalgisi asosida paydo bo'lgani shubhasiz. Chunki tasavvufiy terminlarning katta qismi diniy terminlar asosida yuzaga kelgan.

Hur shakldosh o'zlashmasi. Ushbu omonim o'zlashma M.Rustamiy ta'kidlagan IV tur – talaffuzi bir xil bo'lib, yozilishi, leksik va grammatik ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlar¹¹ga mansub. Chunki arab tili va eski o'zbek yozuvida shaxlo ko'z ma'nosidagi hur حور shaklida, ozod ma'nosidagi hur esa حور tarzida ifoda etiladi

*Har sori anda **hur** kibi jilva qilg'uchi,*

Xo 'blar guruhibig'a ne hisobu ne son erur (ZT, 391^b).

Ushbu misralardagi *hur* so'zi arab tili orqali kirib kelgan o'zlashma (muarrab) bo'lib, asli ma'nesi *shaxlo ko'z* demakdir. Islomiy atama sifatida turkiy tillarga kirib kelgan ushbu o'zlashma islom an'anasi va Qur'onga ko'ra, taqvodorlar bilan birlgilikda jannatda yashaydigan, jismoniy va ma'naviy kamchiliklardan xoli bo'lgan nihoyatda go'zal qiz(lar) ma'nosida istifoda etiladi. Bundan tashqari o'zbek tilida bu so'zni juda chiroyli, go'zal, nozanin qiz hamda sharm-hayoli, pok ma'nolari ham bor¹². Uning asosi "Avesto"dagi – *hūraoða*¹³, pahlaviy matnlaridagi, xususan, "Arda Virof"ning 18-bandida va "Hādōxt Nask"ning 23-bandida uchraydigan go'zal qiz, chiroyli fikrlovchi ma'nosini ifodalovchi – *hurustga* bog'lanadi. Keyinchalik ushbu so'z semit tillariga ham o'zlashgan. Keltirilgan misrada *hur* o'zlashmasi *tavzi'*, *tanosub*, *tashbeh* kabi bir qancha san'atlarni yuzaga chiqishiga asos bo'lmoqda. Boshqa bir o'rinda: *Biz hanuzg'acha banda berib **hur** sotg'un olg'an ermasmiz* (RD, 331^a) misolini uchratamizki, bu satrlarda *hur* o'zlashmasi ozod, erkin,

¹¹Рустамий М. Лугавий шаклдошлиқ ва унинг турларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. - №1-2. – Б. 31.

¹²Ўзбек тилининг изоҳли лугати. V том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –Б. 127.

¹³Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979). –P. 1836.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

mustaqil; erksevar, asil, toza; birovning izmidan xoli, erki o‘zida bo‘lgan ma’nolarini ifodalamoqda hamda nasrda kontrast (tazod san’ati)ga asos bo‘lmoqda. *Hurriyat – ozodlik* so‘zi ayni asosdan hosil qilingan. Arab tilidagi ushbu o‘zlashmaning negizi ibroniydagи *hor – ozod*, oromiydagи *horin – erkin*, suryoniydagи *her-ā – erkin*, midiya tilidagi *harya – ozod*, *erki bilan tug‘ilgan* so‘zlari bilan bog‘lanadi. Har ikki o‘zlashma ham Qur’oni Karimning bir necha suralarida uchraydi va keltirilgan ma’nolarda istifoda etiladi.

Ado omonim o‘zlashmasi. Arabiy omonim o‘zlashma bo‘lib, talaffuzi bir xil bo‘lib, yozilishi, leksik va grammatik ma’nolari turlicha bo‘lgan omonimlar guruhiga mansub. Chunki tugatmoq ma’nosidagi ado arab tili va eski o‘zbek yozuvida ادو tarzida, noz – karashma ma’nosidagi ado ادو shaklida ifodalangan. *Va ul janob farmoni saodatintisob muqtazosicha mazkur sura tafsirin fasohati tamom va balog‘ati molokalom bila ado qilib...*(GD, 74^b). Ushbu misralarda qo‘llangan *ado* so‘zi *ado – tugatmoq, itmomiga etmoq* ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu satrlarda *tavzi’, tanosub, musajja’* kabi badiiy-tasviriy san’atlar yuzaga kelgan. Boshqa bir o‘rinda: ...*bu ilmi sharif qavoidining ta’limig‘a ishtig‘ol ko‘rguzub, husni adoyi maxorijdin tullobni bahramand etgay...*(FI, 602). Ushbu o‘rinda esa *ado – ishva, noz* ma’nolarini ifodalaydi va keltirilgan misralarda tanosub, tazod san’atlarini yuzaga kelishida xizmat qilmoqda. Aslida ushbu ikki omonim ham polisemiya asosida yuzaga kelganligi haqida fikr yuritish mumkin. Chunki *ado* so‘zining *qiynalmoq* ma’nosи ham mavjud. Noz-karashma ma’nosidagi *ado* so‘zida ham ayni *qiynash, qiynalish* holati yo‘q emas.

Shuningdek, ushbu qatorga turkiy *sur* (surmoq fe’lining buyruq mayli shakli) hamda forsiy o‘zlashma *sur* (to‘y, bazm), arabiy o‘zlashma *sur* (karnay, shox, muguz) kiritishimiz mumkin. Albatta, ushbu omonimlik qatoriga shevada qo‘llanadigan yana bir forsiy o‘zlashma *sur* (salobat so‘zining sinonimi) va forsiy *so‘rx – qizil* so‘zining

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

ayrim o‘zbek shevalaridagi varianti *sur* (qirmizi, qizil, qizg‘ish)ni ham qo‘sish mumkin. Chunonchi, “Zubdatu-t-tavorix”da o‘qiymiz:

Kimki sur ichra qilsa bir ishrat,

Etkurur motam ichra yuz hasrat (ZT, 435^a).

ushbu misralarda *sur* o‘zlashmasi *to‘y*, *bazm* ma’nosida qo‘llanayotganini sezish qiyin emas hamda o‘zlashmaning *sur* – *motam* o‘rtasida tazod san’atini, *sur* – *ishrat*, *motam* – *hasrat* o‘rtasida tanosubni yuzaga keltirayotganini kuzatish mumkin.

Yana bir o‘rinda muarrix:

Bo‘lub to‘y uzra to‘y, sur uzra sur,

Sarosar bo‘ldi davron ahli masrur (RD, 253^b).

mistrasini keltiradiki, ushbu o‘rinda *surning karnay* ma’nosida qo‘llangani anglashiladi va *to‘y-sur-masrur* o‘rtasida tanosub, *to‘y* va *sur* takrorlanishi asosida takrir san’atlari yuzaga chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, eski o‘zbek adabiy tili adabiy manbalaridagi lug‘aviy shakldosh bo‘lgan o‘zlashmalarning poetik imkoniyatlarini tahlil qilish, ulardagi ma’no nozikliklarini o‘rganish, lug‘aviy shakldoshlik turlarini tasniflash bizga eski o‘zbek adabiy tilidagi omonimiya hodisasini butun bo‘y-basti bilan o‘rganish imkoniyatini beradi. Chunki eski o‘zbek tilidagi omonimiya asl matn bilan bog‘liq holda o‘rganolganida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagiga nisbatan farqli holatlarni yuzaga keltirishi tabiiy. Chunonchi, hozirgi o‘zbek tili va yozuvni nuqtai nazaridan *mult* va *malak* so‘zlarini hech qanday mezon asosida shakldosh deya olmaymiz. Lekin eski o‘zbek adabiy tiliga oid matnlarda, xususan, eski o‘zbek adabiy tili davriga oid adabiy manbalarda asl matn nuqtai nazaridan ular omonim deb qaraladi. Eske o‘zbek tili matnlaridagi ملک – *MLK* hozirgi o‘zbek tilidagi soya (ko‘lanka) – soya (o‘simlik) juftligi kabi bir mezonga tushadi (yozilishi bir xil talaffuzi har xil, ilmiy tilda ularga nisbatan *omograf* atamasi qo‘llanadi) va omonimning bir turi bo‘la oladi. Demak, eski o‘zbek

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

adabiy tili davriga oid adabiy manbalar asosida tahlil qilganimiz lug‘aviy shakldoshlik va uning turlari o‘zbek tilidagi omonimiya hodisasiga oid qonun-qoidalarni to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. As-Sijistānī. Nuzhat al-Qulūb fī Gharīb al-Qur’ān. Cairo, 1924. –P. 63.
 2. Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-New York, 1979). –P. 1836.
 3. Jeffery A. The foreign vocabulary of the Qur'an. Leiden-Boston. 2007. –P. 78-79.
 4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I jild. – T. Fan. 1983. – B. 405.
 5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom III.– T. Fan. 1988. –B. 132.
 6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom IV. – T. Fan. 1989. –B. 73.
 7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom V. – T. Fan. 1990. –B. 80.
 8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom VIII. – T. Fan. 1991. –B. 60.
 9. Do‘simov Z. Xorazm toponimiyasi va «Avesto» . // «Avesto» – buyuk qomusiy asar. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 13-16.
 10. Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.
 11. Do‘simov Z., Tillaeva M. Toponimika asoslari. – Toshkent, 2002. –88 b.
 12. Do‘simov Z., Tillaeva M. Xorazm onomastikasining shakllanishi va «Avesto» . – Toshkent: Fan, 2010. –112 b.
 13. Rustamiy M. Lug‘aviy shakldoshlik va uning turlariga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1994. - №1-2. – B. 31.
 14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. –B. 378.
 15. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008. –B. 127.
 16. Yuldashev D. Janubiy Qoraqolpoqiston toponimlarining tarixiy-etimologik tasnifi. Filol. fan. nom. dis. –Nukus. 2011. –B. 82.
- شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برہان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶ . در جلد اول ص. ۲۵۰ .